XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA TUMAN KENGASHI

QARORI

2022 - yil 25 - iyun VI-56-71-11-163-K/22 Farg‘ona tumani hokimligi

Farg‘ona tumandagi ayrim geografik ob’ektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga kiritish to‘g‘risida

“Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 16-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021 yil 31 avgust kunidagi 08-04716-sonli xatiga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg'ona tumani Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Farg‘ona tuman hokimining tumandagi ayrim geografik ob’ektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reestriga kiritilayotgan tumandagi geografik ob’ekt nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda geografik ob’ektlarning ro‘yxatdan o‘tkazilgan nomlaridan foydalanishi belgilansin.

4. Mazkur qaror “Vodil yog’dusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur Kengash qarori Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga yuborilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Farg'ona tumani Kengashi raisi **Sh.Muminov**

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman
Kengashining
2022 yil 25 iyundagi
VI-56-71-11-163-K/22-son qaroriga
1-ilova

Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reestriga kiritilayotgan tumandagi geografik ob’ekt nomlari

№	Geografik ob’ekt turi	Joylashgan o‘rni	Geografik ob’ekt nomi	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Mahalla	Farg‘ona tumani	Gulshan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Mahalla	Farg‘ona tumani	Kaptarxona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Mahalla	Farg‘ona tumani	Konchilar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	Mahalla	Farg‘ona tumani	Oqbilol	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	Mahalla	Farg‘ona tumani	Soy bo‘yi	**Soy bo‘yi -** Geografik ob’ektlarning o‘zbek tilida yozilishi qoidalariga asosida normallashtiriladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6	Mahalla	Farg‘ona tumani	Toshqurg‘oni aziz	**Toshqurg‘oni aziz -** Geografik ob’ektlarning o‘zbek tilida yozilishi qoidalariga asosida normallashtiriladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7	Mahalla	Farg‘ona tumani	O‘rta sho‘ra	**O‘rta sho‘ra -** Geografik ob’ektlarning o‘zbek tilida yozilishi qoidalariga asosida normallashtiriladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8	Mahalla	Farg‘ona tumani	Xurshidi tobon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

9	Mahalla	Farg‘ona tumani	Chek sho‘ra	**Chek sho‘ra -** Geografik ob’ektlarning o‘zbek tilida yozilishi qoidalariga asosida normallashtiriladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10	Mahalla	Farg‘ona tumani	Yuksalish	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11	Mahalla	Farg‘ona tumani	Yangi asr	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12	Mahalla	Farg‘ona tumani	Yangiobod	Davlat reyestri bazasida Yangiobod mahallasi Farg‘ona tumanida mavjud. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.